



UO'K: 811:322+811.111.

NEOLOGIZMLARNING TIL RIVOJIGA TA'SIRI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**ВЛИЯНИЕ НЕОЛОГИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)****INFLUENCE OF NEOLOGISMS ON LANGUAGE DEVELOPMENT (EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES)****O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti, Chet tillari fakulteti Ingliz tili amaliy kursi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada neologizmlarning ingliz va o'zbek tillari leksikologiyasini takomillashtirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Neologizmlar yoki yangi yaratilgan so'zlar, terminlar va iboralar lingvistik evolyutsiya va madaniy o'zgarishlarning ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi qiyosiy tahlil orqali neologizmlarning har ikki tilning leksik zaxiralarni boyitish va kengaytirishga hissa qo'shish mexanizmlarini o'rganadi. Buning uchun asosan, ingliz va o'zbek tillarida neologizmlarning ta'rifi, tilga qabul qilinishi hamda tilga moslashuvining talablaridagi o'xshashlik va farqlar misollar orqali yoritib berilgan. Oxir oqibat, ushbu maqola tilda neologizmlar tadqiqi tilshunoslikning turli sohalarida ahamiyatga molik izlanish olib borilishi zarur dolzarb mavzu ekanligini yoritish orqali xulosa qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль неологизмов в совершенствовании лексикологии английского и узбекского языков. Неологизмы, или вновь придуманные слова, термины и фразы, служат индикаторами лингвистической эволюции и культурных изменений. Основная цель данной статьи — изучение механизмов неологизмов, способствующих обогащению и расширению лексических резервов обоих языков, путем сравнительного анализа. Для этого на примерах освещаются сходства и различия в определении неологизмов в английском и узбекском языках, их принятии в язык, а также требования к их адаптации к языку. Наконец, в этой статье подчеркивается, что изучение неологизмов в языке является актуальной темой, требующей значительных исследований в различных областях лингвистики.

Abstract

This article examines the role of neologisms in improving the lexicology of English and Uzbek languages. Neologisms, or newly coined words, terms, and phrases, serve as indicators of linguistic evolution and cultural change. The main goal of this article is to study the mechanisms of neologisms contributing to the enrichment and expansion of the lexical reserves of both languages through a comparative analysis. For this purpose, the similarities and differences in the definition of neologisms in the English and Uzbek languages, their acceptance into the language, and the requirements for their adaptation to the language are highlighted through examples. Finally, this article concludes by highlighting that the study of neologisms in language is an urgent topic that requires significant research within various fields of linguistics.

Kalit so'zlar: neologizmlar, yangi so'z, termin, tilshunoslik, qiyoslash, til taraqqiyoti, so'z o'zlashtirish, muqobil, leksema, jargon, monosemantik, polisemantik.

Ключевые слова: неологизмы, новое слово, термин, лингвистика, сравнение, языковое развитие, усвоение слов, альтернатива, лексема, сленг, однозначность, многозначность.

Key words: neologisms, new word, term, linguistics, comparison, language development, word acquisition, alternative, lexeme, slang, monosemantic, polysemantic.

KIRISH

Ilm-fan, texnologiya, ishlab chiqarish, globallashtirish va davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining tez rivojlanishi tufayli dunyo tillarining so'z boyligi ortishiga zamin yaratildi. Bu taraqqiyot natijasida deyarli har bir tilda har kuni yangi tushuncha va so'zlar, ya'ni neologizmlar paydo bo'ladi va tilning alohida leksik qatlamini tashkil etib, tilshunoslikda ko'plab ilmiy tadqiqotlar manbasiga aylanadi. Biz o'rganadigan ingliz va o'zbek tillari ham bundan mustasno emas.

Manbalarda ko'rsatma berilishicha, hozirda ingliz tilida 170.000 dan ortiq so'z faol qo'llanadi. Bu statistik jihatdan yetarlidек tuyulishi mumkin, ammo dunyo shiddat bilan o'zgarishi va ilm-fan yuksalishi natijasida bu so'zlar imkoniyati cheklangandek tuyuladi. Binobarin, insoniyat mukammalroq nomlarni qidirib topishga intiladi. Natija shuni ko'rsatadiki, har yili Oksford izohli lug'atiga minglab yangi so'zlar qo'shiladi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, o'zbek xalqi o'z mustaqilligiga, erkinligiga erishishi ham o'zbek tili leksikasiga sezilarli darajada ta'sir qilgan. Mustaqillik davrigacha asosan rus tili so'zlari o'zbek tilini boyituvchi asosiy manba bo'lgan bo'lsa, istiqoldan so'ng bu ingliz tiliga o'zgardi. Ingliz tili orqali boshqa til so'zlari ham kishilar muomalasiga kirib, faol qo'llana boshladi. Natijada, tilimizda yuzlab, minglab neologizmlar paydo bo'ldi va bu tendensiya hali ham jadal sur'atlarda sodir bo'lib kelmoqda. Hozirgi paytda o'zbek tilida 20dan ortiq tillardan so'z olish orqali til leksikasi rang-barangligi o'sib bormoqda. Lekin tilimizda uncha faol bo'lmagan tillarning so'zlari ham uchrab turadi.

Albatta, bu o'zlashish jarayoni tilga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bir tomondan, neologizmlar, bir qancha afzalliklarga ega. Ular tildagi bo'shliqlarni to'ldirishga, yangi tushuncha, nomlarni ifodalashga hamda madaniy o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirishi orqali nutqni samarali, ta'sirchan va innovatsion xususiyatlarga ega bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tarafdin, neologizmlarning til leksikonida vaqtlar o'tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilni sofligicha saqlash uchun chet el leksikonidagi so'zlarning ishlatilishini cheklash lozim. Bu bilan tilga kirib keladigan barcha yangi birlikni bosqinchi sifatida munosabat bildirish nazarda tutilmaydi. Aksincha, yangi so'zlarni to'g'ri tadqiq etish va ular keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar yechimiga erishish uchun doimiy ravishda tilshunoslikda maxsus mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Shuning uchun, bu mavzu dolzarblik jihati bilan qadimdan to hozirgi kungacha tilshunoslarning diqqat markazini jalb etib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Neologizm yunoncha (neo-yangi; logos-so'z) "yangi so'z" degan ma'noni anglatib, tilda paydo bo'lgan har bir yangi so'z, ibora yoki terminga ishora qiladi. Inglizlar bu termini birinchi marta 1735-yilda fransuzlarning "neologisme" so'zidan o'zlashtirgan. Zamonaviy lingvistlar neologizmlarni lingvistika evolyutsiyasining asosiy personaji sifatida ta'kidlaydi. [1,25] Chunki, yangi so'z til leksikasining boyishi demakdir. Dunyoda hech bir til yo'qki, boshqa tildan so'z o'zlashtirish orqali boyimagan.

Odatda tilshunoslar neologizmga turlicha ta'rif berishadi va ularning bu mavzuga nisbatan qarashlari ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, A.A.Xadeeva-Bykova ta'kidlashicha: "Neologizmlar deganda shakl va mazmun jihatdan yangi, ma'no jihatdan monosemantik bo'lgan va tilda vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan so'zlarni tushunamiz".[2;112] Shu ta'rifda neologizmlar monosemantik ya'ni bir ma'noli leksik birlik sifati izohlangan, ammo izlanishimiz natijasida ko'p ma'noli neologizmlarga ham duch keldik.

Wicked ['wikid'] – eski ingliz tilidagi witch so'ziga –ed qoshimchasini qo'shish orqali yasalgan bo'lib, odatda ingliz adabiy tilida yovuz ma'nosida foydalaniladi, ammo hozirda jargon so'z sifatida ma'no kengayishiga uchragan va juda ajoyib, ta'riflashga til ojiz kabi ijobiy bo'yoqdagi so'z sifatida ham qo'llanadi.

Sophie makes wicked cakes. – Sofiyaning pishirgan tortlariga gap bo'lishi mumkin emas. (juda zo'r ma'nosida)

O'zbek tilidagi **Bekat** so'zi – asli uzoq qatnov yo'lidagi to'xtab dam olib, tunab o'tiladigan joy ma'nosini anglatgan bo'lsa ham hozirda transport vositalarining to'xtash joyi ma'nosini beradi.

Avtobus bekatda to'xtadi.

Demak, til evolyutsiyasi natijasida neologizmlar polisemantik doiradagi ko'p ma'noli so'zga ham aylanishi mumkin ekan.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida neologizmlar kirib kelishi va o'zlashishi masalalari Sh. Rahmatullayev, kabi olimlarning mukammal ishlarida tavsiflangan. Hozirgi o'zbek adabiy tili kitobida olim neologizmga – yangilik bo'yog'i bor leksema sifatida ta'rif beradi. [3,93]

Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shunda-gina umumtil neologizmga

ILMIY AXBOROT

aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi.

Misol uchun, G'afur G'ulomning ilk poyeziyasida uchraydigan **mozollan** (*mozollangan qo'llar – "O'lgish"*), **fashistlan** – (*fashistlanaroq – "To'qinish"*), **qo'ng'irla** – (*qo'zichoqning barrasiday mayda qo'ng'irlab – "Non"*) kabi so'zlar o'zi ishlatilgan asar doirasida individual nutq neologizmligicha qolib ketgan.

Kompyuter, kserks, birja so'zlarini neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib odatiy leksemaga aylangan. [3,94]

NATIJA VA MUHOKAMA

Odatda neologizmlar ilm-fanda nomlash, kundalik hayotimizda yangi uchragan konseptni nomlash uchun vujudga keladi va sekin-asta bu so'zlar ommaviy axborot vositalarida qo'llana boshlanishi bilan omma e'tiboriga tushgani sari ko'plab muloqotlar vositasiga aylanadi. So'ngra til lug'atiga kiritiladi. Ba'zi olimlar fikricha bu holatda ham neologizm yangi so'zlik mavqeyini yo'qotadi. Boshqalar fikricha lug'atga kirgizish so'z yangiligiga putur yetkizmaydi. Chunki bu so'z omma e'tiboriga to'laqonli yetib bormagan bo'lishi mumkin.

Neologizmlar paydo bo'lishi va o'zlashishi juda tez chunki, biz doimiy ravishda yangi tushunchalar o'ylab topamiz va ularni nomlashga ehtiyoj tug'iladi. Shunday bo'lsa ham, murakkablik ostida rivojlanadigan jarayondir. Bu so'zlar tilshunoslikning bir necha soha mutaxassislari tadqiqotlarda birdek namoyon bo'ladi. Masalan, sotsiologiyachilar – yangi so'zlar qanday paydo bo'lishi va ularning o'zlashishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rgansa, leksikograflar – uzluksiz ravishda qaysi yangi so'zlarni lug'atga kirgizish yoki kirgizmaslikni tadqiq etadilar. Ijtimoiy lingvistika tilshunoslari esa yangi kirib kelgan so'zning til mahalliy guruh a'zolari o'rtasida farqli jihatlari yoki variantlari ustida izlanish olib boradilar: misol uchun kishilar yoshiga, kasb-koriga, irqiga yoki jinsiga qarab.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz joizki, neologizmlar kommunikatsion munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo'shishi bilan birgalikda tilga yana bir qancha imkoniyatlar taqdim etib, tilning barcha tarmoqlari leksikasini boyitadi. Bu albatta ijobiy perspektiv, chunki, ilm-fan taraqqiy etyapti va yangi ilmlar paydo bo'lyapti. Binobarin, neologizmlar ilm-fan va texnologiyaning tilshunoslik doirasidagi mevasidir, ayniqsa, bu mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimiz bilan bir qatorda, tilimiz lug'ati tarkibiga kiritgan yangi so'zlarimiz bizdan avlodlarimizga qoladigan meros desak ham mubolag'a bo'lmaydi, Chunonchi, ular kelajakda bu so'zlardan foydalanadilar va bizga tahsin aytadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ozodov S. "Hozirgi o'zbek tilida neologizmlar" Bitiruv Malakaviy Ishi Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili Va Adabiyoti Universiteti Toshkent – 2018. B – 61.
2. Xadeeva-Byokova AA Neologizmlarni yaratishning bir modeli haqida:(ingliz tili materiali bo'yicha)/AA Xaleeva-Byokova//universitetlararo. Generativ grammatika bo'yicha konferentsiya: Maqolalar.Hisobot-Tartu- 1967,B. 112.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006. B – 450.
4. Gafurova Nodira Ravshanovna. O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari FarDU. Ilmiy xabarlar. 2024 No – 1. 333-337.
5. Ergashev I. Yu. Nemischa o'zlashmalarning sotsiologiyachil va struktur-semantik tadqiqi (Hozirgi o'zbek tili materiallari asosida) Filologiya fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi. Farg'ona – 2021.
6. Erin McKean. Oxford dictionary of New Words. Eighth edition. Oxford Dictionary Department. England – 1990.
7. A.Hojiyev. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati – 2001.
8. O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi. Neologizmlar tadqiqining ahamiyati. "Madaniyatlararo muloqotni o'qitishda lingvodidaktikaning zamonaviy yondashuvlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. FarDU. 18.04.2024. B – 1650.